

## TEXNOLOGIYA TA'LIMI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI XALQ XUNARMANDCHILIGI ASOSIDA MEHNATGA TAYYORLASH JARAYONI

**Muxamedova Xolida Baxtiyorovna**

*Nizomiy nomidagi TDPU*

*Professional ta'lim fakulteti o'qituvchisi*

**Abduraimova Barchin Normo'min qizi**

*Nizomiy nomidagi TDPU*

*Professional ta'lim fakulteti 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida shakllantirilgan o'zbek xalq amaliy san'ati bugungi kunda umuminsoniyat madaniyatida muhim o'rin egallaydi. Endilikda xunarmandchilik turlarining kasb-hunar kollejlari dars jadvalidan fan sifatida o'rin olayotgani xuddi shu maqsadni ko'zlaydi.*

**Kalit so'zlar:** *texnologiya, ta'lim-tarbiya, hunarmandchilik, qadriyatlar, bezak san'ati, naqsh.*

**Аннотация:** *Узбекское народное искусство, формировавшееся нашими предками на протяжении веков, сегодня занимает важное место в культуре человечества. В настоящее время на ту же цель направлено включение ремесел в качестве предмета в учебную программу профессиональных колледжей.*

**Ключевые слова:** *технология, образование, ремесла, ценности, декоративно-прикладное искусство, узоры.*

**Annotation:** *Uzbek folk art, formed by our ancestors over the centuries, today occupies an important place in the culture of mankind. At present, the inclusion of crafts as a subject in the curriculum of vocational colleges is aimed at the same goal.*

**Key words:** *technology, education, crafts, values, arts and crafts, patterns.*

Xalq xunarmandchiligi moddiy madaniyatimizning eng qadimiy muhim turlaridan sanaladi va tasviriy hamda amaliy san'atning ko'pdan-ko'p sohalari bilan uyg'unlashib ketadi. Ammo, tasviriy va amaliy san'at buyumlarga badiiy ishlov berish jarayonining o'zbek xalq xunarmandchiligining o'ziga xosligi, yo'llarini, xusumatlarini bir-biridan ajratadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini mehnat va kasbga tayyorlashni takomillashtirishda xalq xunarmandchiligidan foydalanishning pedagogik sharoitini tashkil qilishda quyidagi jihatlarga e'tibor berish lozim:

1. Texnologiya ta'limi darslarida o'quvchilarni xalq xunarmandchiligi asosida tarbiyalash maqsadida mutafakkir, donishmandlar, olimlar asarlarining tarixiy mazmunini o'rganish, tahlil qilish orqali mazkur sohaning hozirgi zamonaviy ilmiy, nazariy poydevorini yaratish lozim.

2. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini texnologiya ta'limi darslarida oliy qadriyatlar asosida tarbiyalash maqsadida xalq xunarmandchiligi sohalarining milliy, mahalliy, hududiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'g'il bolalar va qiz bolalar faol

ishtirok etadigan, ya'ni, ko'nychilik, mahsido'zlik, kosibchilik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik, quroqchilik, zardo'zlik sohalarini tanlab olib, ularning o'qitilish jihatlari shakllantirilishi lozim.

3. Hozirgi zamon umumta'lim maktablarida amalda qo'llanilayotgan o'quv dasturlari mazmunini tanlashda o'quvchilarni xalq xunarmandchiligi asosida tarbiyalashda, xalq xunarmandchiligi asoslarini o'rganishini tarkib toptirish hamda ularga milliy qadriyatlarni ushbu soha misolida o'rgatish lozim.

4. O'quv jarayonida o'quvchilarni xalq xunarmandchiligi asosida tarbiyalashni ta'limning maqsad va vazifalarini belgilashda, albatta, ularning o'ziga xos pedagogik usullari va vositalarining qo'llanilishi lozim bo'ladi.

Xunarmandchilik – xunarmand har xil oddiy mehnat qurollari yordamida turli maxsulotlar tayyorlaydi, ishlab chiqaradi, turli maxsulotlar tayyorlaydigan kasblarning umumiy nomi.

Kulolchilik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, binokorlik, xaykaltaroshlik, o'ymakorlik, toshtaroshlik, ko'nychilik, pichoqchilik, do'ppichilik va boshqa xunarmandchilik turlari ajrala boshladi.

Demak, yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, xalq xunarmandchiligining mohiyati, mazmuni, tuzilishi xususiyati o'ziga xosdir.

O'zbek xalqining shakllanish tarixi bilan uyg'unlashib ketgan xalq xunarmandchiligining o'nlab turlari bo'lishiga qaramasdan, hozirgi zamon tarbiya tizimida ulardan deyarli foydalanilmasdan kelinishi mavjud, bu esa mehnat va kasbga yo'naltirish ta'lim tizimining milliy, madaniy, etnik, tarixiy xususiyatlaridan ajralib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Respublikamizdagi xalq xunarmandchiligining Toshkent, Samarqand, Buxoro, Navoiy, Xiva, Termiz, Urganch, Namangan, Andijon, Farg'ona, Chust, Shaxrisabz va boshqa markazlarning ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari beqiyos bo'lib, o'ziga xosligi jihatidan bir-biridan ajralib turadi.

Xalq amaliy bezak san'ati tarixiy jismga badiiy ishlov berish faoliyatidan boshlangan. Inson badiiy-ijodiy tafakkuri mahsuli bo'lgan bu faoliyat tosh asrlaridayoq bo'lgan va uning yashashi uchun go'zal muhit yaratishga xizmat qilgan. Bundan tashqari bu faoliyat inson qalbida komillikka va erkinlikka intilishni kuchaytirgan hamda cheksiz imkoniyatlar sohibi ekanligini anglatgan. O'z navbatida inson ongi va tafakkuri rivojlanib, ma'naviy ehtiyojlarini ortib borishi bilan mazkur san'atning ko'plab turlari hamda badiiy ifoda vositalari boyib, rivoj topib borgan.

Xalq amaliy bezak san'ati naqshlar asosida buyumlarga badiiy ishlov berishdan iboratdir. Naqshlar jismga turli yo'llar va vositalar yordamida tushirilgan: chizib, urib zarb bilan, qadab, qo'l choklari yordamida, to'qib, gul bosib. Naqshlarni buyumga tushirish usullarining boyib borishi xalq amaliy bezak san'ati hamda xalq xunarmandchiligi turlarining paydo bo'lishiga olib kelgan: naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, zargarlik, ganchkorlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamchilik va hokazo.

Ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida shakllantirilgan o'zbek xalq amaliy san'ati bugungi kunda umuminsoniyat madaniyatida muhim o'rin egallaydi. O'zbek xalq amaliy

san'ati namunalari jahonga mashhur bo'lib, dunyoning turli shaharlaridagi san'at va etnografiya muzeylaridan o'rin olgan. Ayniqsa, mustaqillikdan so'ng mazkur san'at asarlari xalqimiz nomini butun dunyoga tanitishda katta rol o'ynamoqda. Shuningdek, bu jabhada yoshlarimizning o'rni beqiyosdir. Yoshlarimiz badiiy san'at va xunarmandchilikning sirlarini ilmiy asosda va amaliy jihatdan puxta o'zlashtirgandagina bu muhim vazifani muvaffaqiyatli uddalay oladilar.

Endilikda xunarmandchilik turlarining kasb-hunar kollejlari dars jadvalidan fan sifatida o'rin olayotgani xuddi shu maqsadni ko'zlaydi.

Xozirgi davrda uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimida, mehnat va kasb-hunar natijasida xalqimizning milliy, ma'naviy, madaniy meroslaridan, qadriyatlaridan, ilmiy yutuqlaridan foydalanishning yo'llarini, pedagogik shart-sharoitlarini belgilash va barcha izlanishlarning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. M.A.Maksumova, Q.M.Abdullayeva. Xalq xunarmandchiligi.- T.: TDPU, 2008.
2. Шоёқубов Ш.К. Ўзбек халқ амалий-безак санъати. – Т.:, 2009.
3. Х.Б.Мухамедова, Н.Йўлдошева. Инновационный подход эффективной организации внеклассной деятельности учащихся общеобразовательной школы // Вестник науки и образования. Научно-методический журнал. Российский импакт-фактор. 2020 г. 1 март № 5. – с. 71-73.
4. Х.Б.Мухамедова. Texnologiya fanining uzviylik va uzluksizligini ta'minlash va takomillashtirish omillari // ARES. BAK. Toшкент №3 2021 йил.